



SO'NGGI KUNLARDA TA'LIM SOHASIDAGI E'TIBOR

Aliqulova Gavhar Panjiyevna

Surxondaryo viloyati Sherobod tumani

46- umumiy o'rta ta'lismaktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqola mamlakatimizda ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tiborning huquqiy, pedagogik hamda tashkiliy masalalarini muhokama etishga bag`ishlanadi.

Kalit so'zlar: Qonun, ta'lismaktabi, tarbiya, metod, tafakkur, Konstitutsiya.

KIRISH

Mamlakatimizda azaldan ta'lismaktabi va milliy ma'naviyat doimo uzviy aloqada bo'lgan. Ular umumbashariy qadriyatlar bilan birga rivojlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarizda har kimning bilim olish huquqi kafolatlangan.

Ta'lismaktabi – bu millatning va davlatning kelajagi uchun qilinadigan engmuhim sarmoyalardan biridir. Bu inson kapitalini shakllantirishning o'zagi va jamiyat rivojlanishining markazidir. Yuqori iqtisodiy o'sishga erishish va qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirish uchun turli milliy institatlarda ta'lismaktabi va sifatli tadqiqotlarga sarmoya kiritish juda muhimdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

1993 yil 25 iyunda Venada bo'lib o'tgan Butunjahon inson huquqlari konferensiyasi ham davlatlarning inson huquqlari bo'yicha ta'limga oid majburiyatlarini yana bir bor tasdiqlab, "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" va boshqa xalqaro huquqiy hujjalarni inson huquqlari bo'yicha ta'lismaktabi orqali inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni kuchaytirishga chaqirishini eslatib o'tdi.

Shuningdek, ushbu Inson huquqlari bo'yicha Butunjahon konferensiyasining asosiy natijalaridan biri savodsizlikni yo'q qilishorqali shaxslar, guruhlar, jamoalar va millatlar o'rtaida tinch, uyg'un va bag'rikeng munosabatlarga erishish mumkin degan xulosasi edi.



Demokratik huquqiy davlat barpo etish ko‘p jihatdan ta’limni tashkil etish darajasiga bog‘liq. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “**Ta’lim – demokratiya asosidir**” formulasi bu muammoni hal etishda maktab, universitet va o‘qituvchining o‘rnini alohida ekanligidan dalolat beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Prezidentimiz 2022 yil 20 dekabrdagi Murojaatnomasida 2023 yilni yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qilgani bejiz emas. Aslida ham, “**najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi**”. Barcha rivojlanishlarning asosi ta’limdan boshlanadi. Ta’lim, albatta, tizimli, uzviy va uzluksiz tashkil etiladi. Maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi va oliy ta’lim sohalari bir-biriga bog‘liq holda rivojlantiriladi.

Yosh avlodga zamonaviy ilm-fan sirlarini o‘rgatib, kasb hunarga yo‘naltirish yoki farzandlarimizni raqobatbardosh yetuk mutaxassislar etib tarbiyalash vazifasi sifatli ta’lim berishga safarbar etilgan barcha muallimu ustozlar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Zero, yoshlarimiz yuksak ma’naviyatli, umumbashariy qadriyatlar va milliy an’analalarimizga sodiq, komil inson bo‘lib yetishishlari butun jamiyat uchun ahamiyatlidir.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning yagona va to‘g‘ri yo‘lidir. Bugungi kunda ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbudolzarb talabdan kelib chiqqan holda ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari qabul qilinmoqda.

Bu o‘rinda davlatimiz rahbarining 2023 yil 7 fevraldagisi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturi tasdiqlangani alohida ahamiyat kasb etadi. Nega deganda, mazkur Dastur barcha inson huquqlaridan foydalanishga yo‘l ochadigan boshlang‘ich nuqta – ta’lim olishhuquqini takomillashtirishga qaratilgan ulkan amaliy qadamdir.

Ta’lim olish huquqi inson huquqlari bo‘yicha ta’limni o‘z ichiga olib, ushbu huquqlarni o‘rganish, shuningdek, jamiyatimizda inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish usullari, vositalarini ham qamraydi. Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim va



tarbiya inson hayoti mobaynida davom etadigan va turli yoshdagilarga tegishli bo‘lgan jarayondir.

Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturi mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta’limni yanada takomillashtirish, Insonhuquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi ijrosini ta’minalash, shuningdek, Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta’lim dasturining to‘rtinchi bosqichida belgilangan vazifalarni samarali va o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida qabul qilinganini alohida ta’kidlash lozim.

Professor R.Samarov fikricha, “yoshlarga doir ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda, majmuaviy yoki integrativ tarzda yondashish lozimligini inobatga olsak, tadqiqot olib borish uchun bilimlar majmuasini funksional-tuzilmaviy jihatlarini inobatga olib, ilmiy tadqiqotlarning nazariy asosini maqsadli shakllantirish tavsiya etiladi”. Aynan yoshlar hayot strategiyasini tadqiq etish uchun vazifadorligi jihatidan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik jarayonlarnibelgilovchi uchta nuqtani, ya`ni:

- shakllanish nuqtasini;
- rivojlantirish nuqtasini;
- takomillashtirish nuqtasini belgilab olish lozim.

Tadqiqotchi N.Nazarovaning yozishicha, “Shu bois yoshlar hayot strategiyasiga ta`sir etuvchi omillarning o`rni va rolini hisobga olish lozim. Bular:

- turmush tarzi;
- oilaviy muhit;
- ijtimoiy muhit;
- ta`lim-tarbiya;
- individual xususiyatlar;

jamiyatda o`rnatilgan mavjud meyorlar va b”[3] bog`liqligini ta`kidlaydi. Negaki, yoshlar hayot strategiyasini shakllantirish masalasi bu murakkab va ko`p qirrali jarayon hisoblanadi. L.B.Osipova yoshlar hayot stretegiyasiga quyidagicha munosabat bildirgan: yoshlar hayot stretegiyasi deganda, bu ularning orzu va intilishlari, maqsad va qiziqishlarini amalga oshirish uchun oldindan hayotini rejalashtirish, maqsad va orzularga erishish yo`lida



qat'iy kurashish usul va yo`llarini tanlash va ishlab chiqish, shuningdek tuzilgan reja asosida harakatlar ketma-ketligini amalga oshirilishi tushuniladi”[5].

XULOSA VA MUNOZARA

O`zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta`lim dasturining to`rtinchi bosqichini amalga oshirish bo`yicha Milliy komissiya tomonidan 2023 yil 20-28 fevral kunlari “Inson huquqlari haftaligi”ni o`tkazish bo`yicha Dastur tasdiqlandi. Shu kunlarda Dasturda belgilangan tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilayotgani, shubhasiz, Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta`lim dasturi talablari allaqachon hayotimizga chuqur tatbiq etilayotganining ifodasıdir.

Xulosa o`rinda quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- yoshlarga ta`lim-tarbiya berish masalasi bu uzoq tarixiy davrni o`z ichiga qamrab olib, bu xalq og`zaki ijodi namunalarida, qadimgi yozma manbalarda va mutafakkirlar tomonidan bildirilgan qarashlarda o`z aksini topgan;
- yoshlarga ta`lim-tarbiya berish masalasi dolzarb hisoblanib, u sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, falsafa, pedagogika, etika, estetika, yuvenologiya kabi fanlar sohalari doirasida tadqiq etib kelinmoqda;
- O`zbekistonda yoshlarga ochiq va sifatli ta`lim berish, iqtidorli va iste`dodli yoshlarni har tomonlama qo`llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlarning institusional asoslari takomillashtirilib, yoshlar masalasiga oid keng ko`lamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda;
- Yoshlarga ta`lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga erishish milliy g`oyaning ustuvor yo`nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu borada amaliy chora-tadbirlar mexanizmlari takomillashtirilgan holda ijtimoiy hayotga tadbiq etib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Inson huquqlariga oid asosiy hujjatlar to`plami: O`quv qo`llanma/Ma’sul muharrir yuridik fanlar doktori, prof. A.X. Saidov. – T.: O`zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2013. – 188 b.



2. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi (yangi tahriri) 2017 yil 11 sentyabr qonuni // Xalq so‘zi, 2017 yil 12sentyabr.

3. Abdinazarovich, R. D., Anarbaevich, P. K., & Ikromovich, T. A. (2022). Scientific Development in New Uzbekistan: Results and Prospects. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(1), 76-82.

4. Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, & Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). MEHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMA YDIGINLAR, AYNIQSA NOGIROLNLARNI ZAXIRALANGAN ISH O‘RINLARIGA ISHGA JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 281-285.

5. Beknazarov, A. A., Rakhmonov, D. A., Normuratova, M. K., & Nasirov, K. J. (2020). Psychological-pedagogical classification of the philosophy of social service. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(7 Special Issue), 2759-2762.